

OGAHIY IJODIDA TARIX VA BADIYYAT UYG‘UNLIGI: ZUBDAT UT-TAVORIX MISOLIDA.

Farg‘ona davlat universiteti

filologiya fakulteti

3-bosqich talabalari

Vasijonova Surayyoxon, Mahsumxonova Zumradxon

ANNOTATSIYA: ushbu maqolada XIX asr o‘zbek adabiyoti va tarixnavislik maktabining yirik vakili Ogahiy ijodida tarixiy-badiiy tafakkur uyg‘unligi “Zubdat ut-tavorix” asari misolida tahlil qilinadi. Asarning tuzilishi, mazmun qatlamlari, unda qo‘llangan tarixiy ma’lumotlar tizimi hamda Ogahiyning tarixiy voqealarni bayon etishdagi metodologiyasi o‘rganiladi. Tadqiqotda “Zubdat ut-tavorix”ning 2–3-boblari tabdili asosida muallifning tasviriy uslubi, til xususiyatlari, tarixiy faktlarni tanlash mezonlari va tarixchilar an’anasiga munosabati ilmiy jihatdan sharhlanadi. Maqola Ogahiy tarixnavis sifatida shakllangan maktabining asosiy belgilarini yoritib, asarning bugungi tarixshunoslikdagi o‘rnini ko‘rsatadi.

KALIT SO‘ZLAR: Ogahiy, Zubdat ut-tavorix, tarixnavislik, Xorazm adabiy muhiti, manbashunoslik, tabdil, xronologik bayon, badiiy-tarixiy sintez, tarixiy manba, Sharq tarixshunosligi.

O‘zbek adabiyoti tarixida XIX asr Xorazm adabiy muhiti alohida yuksalgan davr sifatida e’tirof etiladi. Mana shu muhitda shakllangan atoqli ijodkorlardan biri Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy bo‘lib, u nafaqat she’riyatda, balki tarixnavislikda ham yirik meros qoldirgan. Ogahiy tarixiy ijod bilan shug‘ullangan Munis, Bayoniy kabi ustozlar an’anasini davom ettirgan holda, Xorazm xonligi hayotiga oid ko‘plab voqealarni yozib qoldirgan, ularni o‘zining badiiy mahorati bilan uyg‘unlashtira olgan. Tarixnavislik Sharq ilmiy fikrining qadimiy va mustahkam tarmoqlaridan biri bo‘lib, tarixiy asarlarning yaratilishida voqealarni xolislik bilan qayd etish, dalillarga suyanan holda bayon qilish va ma’lumotlarni aniq xronologik ketma-ketlikda berish zarur hisoblangan. Ogahiy ham

bu talablarga rioya qilgan holda, o'zining "Zubdat ut-tavorix" asarida siyosiy jarayonlar, hukmdorlar faoliyati, ijtimoiy hayot va tarixiy shaxslar haqida muhim ma'lumotlarni jamlagan. "Zubdat ut-tavorix" — o'zbek tarixnavisligi taraqqiyotida alohida o'rin tutuvchi manba bo'lib, unda nafaqat tarixiy faktlar, balki Ogahiyning badiiy-tasviriy qalamiga xos mahorat ham yorqin ko'zga tashlanadi. Asardagi boblarning mazmuni, xususan 2–3-boblarda keltirilgan voqealar va ularning bayoni Ogahiyning tarixni idrok etish tarzini ochib beradi. Mazkur boblarning tabdili asosida asarning til va uslub xususiyatlari, tarixiy tafsilotlarni tanlash mezoni hamda muallifning voqealarga bo'lgan munosabati yanada ravshanlashadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi tarixshunoslikda Ogahiy merosini qayta o'qish, uni ilmiy asosda tahlil qilish va tarixnavislik maktabi sifatida baholash zarurati ortib bormoqda. Shu boisdan ushbu maqolada asarning tarkibiy tuzilishi, mazmun qatlamlari va muallifning tarixnavislik mahorati keng yoritildi.

I. Ogahiyning tarixnavislik an'analari va ilmiy uslubi

Xorazm adabiy muhiti XIX asr o'zbek tarixnavislik maktabining yuksalishida muhim o'rin tutadi. Bu davrda Munis, Bayoniy, Abulg'azi Bahodirxon kabi tarixnavislarning merosi davom ettirilgan, tarixni badiiy ifoda bilan uyg'unlashtirishga bo'lgan intilish kuchaygan. Mazkur an'ananing eng salmoqli davomchilardan biri — Ogahiy bo'lib, u tarixiy voqealarni nafaqat qayd etgan, balki ularni chuqur tahlil qilgan holda bayon etgan.

1. Sharq tarixnavisligi an'analari va Ogahiy ijodi

Sharq tarixshunosligida qadimdan voqealarni ketma-ketlikda yozish, ularni boshqa manbala bilan solishtirish va xolis tarzda hujjatlashtirish muhim mezon bo'lgan. Ogahiy ham shu ilmiy mezonlarga suyanan holda ish yuritadi. U o'z asarlarida:

Turli manbalarni qiyoslash,

Xronologik izchillikni saqlash,

Tarixiy shaxslarning faoliyatini adolatli baholash,

O‘zi guvoh bo‘lgan voqealarni ishonchli tarzda qayd etish kabilarga jiddiy e’tibor qaratgan. Bu jihatlar Ogahiy ijodini Sharq tarixnavisligi an’anasidagi uzviy bo‘g‘in sifatida namoyon etadi.

2. Manba tanlashdagi ilmiy yondashuv

Ogahiy tarixiy ma’lumotlarni tanlashda nihoyatda oqilona yondashadi. U:

Bayoniy, Munis kabi tarixchilar asarlaridan,

Xonlik rasmiy hujjatlaridan,

Saroy voqealaridan,

Va o‘zi kuzatgan hayotiy hodisalardan keng foydalangan. Har bir faktning ishonchliligini sinchiklab tekshirgani uning tarixnavislik madaniyati yuqoriligini ko‘rsatadi. Manba tanlashda Ogahiy uchun eng muhim tamoyil — haqiqat va voqelikni buzmaslik, ya’ni imkon qadar xolis bo‘lishdir.

3. Voqealarni bayon etish metodologiyasi Ogahiy tarixiy voqealarni bayon qilishda bir necha metoddan samarali foydalanadi:

a) Xronologik tartib U voqealarni aniq yillar, hukmdorlik davrlari, fasllar bilan belgilab boradi. Bu asarga ilmiy tartib, aniqlik va o‘quvchanlik beradi.

b) Sabab-oqibat tahlili Ogahiy voqeani shunchaki sanab o‘tmaydi, balki uning yuzaga kelish sababi, oqibati, ijtimoiy-siyosiy ta’sirini ham ochib beradi.

c) Shaxslar xarakterini yoritish

Tarixiy shaxslar:

fe’l-atvor

davlat boshqaruvidagi qobiliyati

xalq bilan munosabat bilan birga tasvirlanadi. Bu jihat Ogahiyda tarix va badiiyat uyg‘unligining yorqin belgisi hisoblanadi.

4. Ogahiyning til va uslubiy mahorati Ogahiy tili ravon, silliq, sodda bo‘lib, tarixiy voqealarning mazmunini o‘quvchiga tushunarli tarzda yetkazadi. U: arabcha-forscha iboralarni me‘yor bilan qo‘llaydi; tasviriy vositalarni haddan ziyod ishlatmaydi; bayonga bir xil ohang va uslub beradi; o‘quvchini charchatmaydigan tushunarli jumla qurilishini afzal ko‘radi. Tarixiy faktlarni taqdim etishda uslubning sodda bo‘lishi ilmiylik talabiga ham to‘la mos keladi.

5. Badiiy-tarixiy sintez

Ogahiy tarixnavis sifatida nafaqat xronikachi, balki badiiy ijodkor hamdir. Uning badiiy tasvirlari voqealarni yanada jonli qiladi. Ammo bu tasvirlar tarixiy haqiqatni o‘zgartirmaydi, faqat uning ko‘rinishini boyitadi. Bu yondashuv: tarixni jonlantiradi, voqealarning ruhini ochadi, tarixiy shaxslarni esda qolarli qiladi.

II. “Zubdat ut-tavorix” asarining tarkibiy tuzilishi

Ogahiy tomonidan yaratilgan “Zubdat ut-tavorix” o‘zbek tarixnavisligi taraqqiyotida alohida o‘rin tutuvchi manba hisoblanadi. Asar voqealar bayoni, tasviriy vositalar, xronologik izchillik va tarixiy dalillarning tartibli berilishi bilan ajralib turadi. Uning tarkibiy tuzilishi Ogahiyning tarixnavis sifatida yetukligini, badiiy va ilmiy fikrni uyg‘unlashtirishdagi mahoratini ko‘rsatadi.

1. Asarning umumiy kompozitsiyasi

“Zubdat ut-tavorix” o‘z tuzilishi jihatidan Sharq tarixiy asarlari an‘analariga mos ravishda yozilgan. Unda: Kirish qismi (muqaddima), Boblar (fasllar), Yakuniy qism aniq bir kompozitsion tizimda joylashtirilgan. Kompozitsiya asosan xronologik ketma-ketlik kuchli bo‘lgan tarixiy asarlar shakliga mos. Har bir bobda muayyan davr, hukmdorlik yili yoki ijtimoiy-siyosiy voqealar yoritilgan.

2. Boblar tizimi va mazmun qatlamlari Ogahiy boblarni tartiblayotganda voqealarni: siyosiy o‘zgarishlar hukmdorlar almashinuvi qo‘zg‘olonlar iqtisodiy jarayonlar ichki va tashqi siyosat harbiy yurishlar singari mazmuniy belgilarga ko‘ra ajratgan. Shu bilan birga

boblar orasida uzviylik yuqori bo'lib, har bir bob oldingisining mantiqiy davomidir. Boblarning mazmun qatlamlari uch asosiy yo'nalishga bo'linadi:

1. Hukmdorlar tarixi — xonning siyosati, faoliyati, yurishlari, xalq bilan munosabati.

2. Siyosiy-ijtimoiy voqealar — davlat boshqaruvidagi o'zgarishlar, saroy munosabatlari, ichki nizolar.

3. Xorazmning iqtisodiy hayoti va madaniyati — aholining yashash sharoiti, obodonchilik, ilm-fan, madrasalar haqida ma'lumotlar.

4. Xronologik prinsipning qo'llanishi

Asarda xronologiya nihoyatda muhim o'rin egallaydi. Ogahiy: yil, oy, ba'zan kunlarni ham ko'rsatadi; hukmdorlik davrlarini aniq belgilaydi; voqealarni o'zaro sabab-oqibat bog'liqligida izchillik bilan taqdim etadi. Bu yondashuv asarni ilmiy tarixiy manba sifatida mustahkamlaydi. Xronologik tartib Ogahiy realizmi va tarixiy xolislikka qat'iy amal qilganining dalilidir.

4. Tarixiy faktlar va geografik ma'lumotlar

“Zubdat ut-tavorix”da geografik joylar, aholi punktlari, qishloq va qal'alar nomi aniq qayd etiladi. Bu ma'lumotlar o'sha davr Xorazm hududi va unga qo'shni o'lkalarning siyosiy xaritasini tiklashda ham muhim. Tarixiy faktlar: saroy hujjatlari, rivoyatlar, og'zaki va yozma manbalar, muallifning shaxsiy guvohliklari asosida jamlangan. Ogahiy voqealarning haqqoniyligini ta'kidlash uchun ba'zan boshqa tarixchilar fikrini ham keltiradi, bu esa asarni yanada ishonchli qiladi.

5. Asarda qo'llanilgan uslubiy vositalar

Tarkibiy tuzilishda quyidagi uslubiy belgilar muhim o'rin tutadi:

a) Qisqa va mazmunli paragraf tuzilishi Ogahiy mazmunni cho'zmaydi, har bir voqeani aniq mazmuniy yadrosi bilan beradi.

b) Saroy terminlari va tarixiy atamalardan o‘rinli foydalanish. Bu asar ilmiyligini oshiradi, an‘ananing davomchisi ekanini ko‘rsatadi.

c) Badiiy ifodaning me‘yorli qo‘llanishi. U voqealarni tasvirlashda badiiy rang berishga urinadi, biroq tarixiy asosni o‘zgartirmaydi.

6. Asarning ilmiy qiymatini oshiruvchi tarkibiy jihatlar: boblar orasidagi ichki mantiqiy izchillik, faktlarning takrorlanmasligi, har bir voqeaning umumiy tarixiy jarayon bilan bog‘lanishi, Xorazm xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotini ko‘lamli tasvirlash asarning tarkibiy mustahkamligini ko‘rsatadi.

Zubdat ul-tavorix asari tabdiliga o‘tsak:

Birinchi bobi: Buxoro voliysi amir Nasrulloning musolaha va‘dasi qilib ul va‘dadin qaytgani.

Ma‘lum xotira ashraf bo‘lsin uni eslashlik sharaflari bir xotira bo‘lsin, olloh o‘zi mahfirati qilsin sohibqiron maxfirat panoh olloh o‘zi maxfirat qilingan qilsin. Hazrati zilli ilohiy degani ilohni soyasida bo‘lgan hazrat hamkorligi bilan soyasi va hamkorligida Buxoro viloyatiga viloyatga lashkar chekib ya‘ni qora viloyatiga lashkar qo‘ydi. Xalqni ko‘chirib jambilbot xalqni libos degani yaxshi degani xalqni eng yaxshisi ko‘chirib Qatnamu parvardigorgacha joy tatovul tutbodini yotgurib ondan so‘ng o‘sha yerdan qaytganidan keyin buxoro podshohi amir huzuriga yetgan mashaista avval va bo‘isda amolitin nodi va shaymon bo‘lib nasroni zilli ilohiy avvalombordan nodim va pushaymon bo‘lib ho‘p noshayishda ahvol demak o‘zboshimcha ishlari va to‘g‘ri bo‘lmagan ishlari uchun nadombolib deyapti modda madonnay mulozimlarini naziratnoma topshirib unga motamat alik degani u vakolatlangan mulozimlardan bo‘lgan yagojiga mansuratnoma degani uzr sorashchilik xatini topshirib suluh talabi bilan yuborib erdi. Maqbul tutib bora do‘stiq e‘loni uchun elchiligiga domla Muhammad Rasulovni qo‘shib er sal qilib berdi endi bu xotini o‘sha uzr so‘rashdik iltimosini qabul qilib do‘stlik ya‘ni suluhni eron qilishlik uchun elchisiga muhammad rasulov domlani qo‘shib jo‘natvor deyapti ir sol qilib erta degani er solni yana o‘sha qo‘shib yubordi deyapti yana qaytadigan mukarranat muvaffaqiyat erta qobi va muxolifat estimobiga mushir maktubat topshirib Homidxo‘ja

ortiq bir mo'tabar kishining domla muhammad rasulga hamroh qilib qaytarib berdi. Hazrati zelli ilohiyning jilosi maymanat ma'nosidan 4 kuni shanba kuni darboriy falak miqdor ini ota-boboligiga foiz bo'lib keltirgan maktubni janobi mulozimlari vositasi bilan muvofiq arzga yetkazdilar. Bu xatini olib ularga yetkaza deyapti mumton 10 kun so'ng zulqado oyining 17 sanasida shanba kuni hazrati zilni ilohiy buxoro elchisiga ala mulo qola loyiha olim piya mullalarni eng oliysi afzali fuzaloiy baniy odam lardan bolasini eng fazilatlisi bo'lgan hazrat ishonaman domla Muhammad rasm mazkurni masx qilib masxab degani sahiv qilib degan ya'ni bilasan xonim maqbarasin janozasi asxoblarni ya'ni mazkur holat degani o'sha o'ziga sohib oyi olim mullalarni eng oliysi afzalroq fuzaloyiq baniy odam qat nishon ha qahat nishon Muhammad Muso esho alam va Muhammad Rasm mazkurni mazxod degani sahiv qilib degan ya'ni bir sinonim mahmudotini janozasi asxobulini mazkur qilib degani o'sha bizga sohibqilib deyapti janozasi asxobi vodiyni o'zining so yuborgan sulhnoma topshiramiz sizlarni arz qildi demoqda. Chunki mazkur bo'lgan elchilar amirning aytgan suluhlarini Nasrulloning so'zlarini arz qilib Amir o'zini yuborgan elchilarini qaytardi. U elchilarga davlat ishlari suluh kelishuvi masalalarida topshiriqlar bergan. Shuningdek, Rossiya tomonidan yuborilgan elchi Buxoroga keladi va amir huzuriga chiqadi. Amir uni hurmat qilib sovg'a salomlar berib uning uchun ko'p ziyofatlar bergani aytiladi.

Ikkinchi bobida:

Hazrati zilli ilohni davlatga o'tirishligini qabul qilgan kishilarini o'sha o'tirishiga ruxsat berib ov marosimida narigi valiy vaqt bilan o'tirishligi va davlatni bu podshohga bu sunishligi aytib o'tilmoqda. Chunki ya'ni kun hazrati podshohi zilli ilohiy va shahar Abdulg'oziy Rahimquli bahodirxon shikor musqali bilan shikorgoh azamatini jazm qildi, xullas o'sha hazrati zil podshoh zilni ilohi bilan shoxon ikkalasi voyaga abdulg'oziy rahimxonni ovqatiladigan joyiga borib, shu oqilishlikka jazm qilishdi, bu jihatdan ul hazrat reqobiy humoyun va janobiy soati namon mulon ozodatiga umuman oliy falak iqtidor vosipohi anjumani safari yarog'i va shirat asbobi tahiyasi uchun xazon hazo nayi omaridiy nuqul qildi o'shalarga bir narsalab berdi, xullas bor chag'a tushunmadim barchaga, yana barcha barchaga xursandlik va shodligi yetkazdi deyapti umuman deganda amirlar

deganish amirlarni hammasini ovchilikda judayam iqtidorli odamlarni shirkga jalb qilib hammasi atrofdagi namoyon tomoshabinlarga hammasiga hursandchilik olib keldi degan ma'noda aytyapti sanay hijriya hijriy sananing 259 yilda Barselining oxirlarida alohida degan oxirlarida Muharram oyning muharramning uchlovchi uchinchi kunida deyapti juma kuni edi namozi jumla adosidan so'ng jamshidona sog' salomatlikda va xurshidona shavkatlar bilan muborak yorqin davlat raqobiga qo'yib davlatga bir ishga tayin qilinibdiyu savoldat yaqinrog'lar uchun qilindi. Buxoro amiri Rossiya amirining ko'nglini olish uchun turli xil marosimlar, ziyofatlar beradi va natijada Buxoro shahrini qo'ldan boy beradi.

Xulosa qilib aytganda, “Zubdat ut-tavorix” — Sharq tarixshunosligi an'alariga tayangan holda yaratilgan eng muhim tarixiy manbalardan biridir. Asar o'z davrining siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotini bayon etar ekan, unda hukmdorlar sulolasi, davlat tuzilishi, tarixiy voqealar va mashhur shaxslar haqida muhim ma'lumotlar jamlangan. “Zubdat ut-tavorix” o'zbek, turkiy xalqlar tarixi uchun asosiy qo'lyozma manbalardan biridir. Asar voqealarning tarixiy ketma-ketligini aniq, ishonchli tarzda yoritadi. Undagi genealogik ma'lumotlar, qabila va sulola tarixining berilishi uni boshqa manbalardan ajratib turadi. Asar o'z davri siyosati, ma'naviy hayoti va davlat boshqaruvi haqida to'liq tasavvur beradi. Shu sabab “Zubdat ut-tavorix” tarixiy manbashunoslikda eng muhim o'rganiladigan asarlardan bo'lib, bugun ham tarixchilar tomonidan yuqori baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jabbarov.N. O'zbek badiiy tarixiy nasrining sara namunnasi/Ogahiy Muhammad Rizo, “Zubdat ut-tavorix”. —T.: O'zbekiston 2013._B.4.
2. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана.Л, 1927.стр, 113
3. Abdullayev.V O'zbek adabiyoti tarixi —T.: O'qituvchi 1967, 380b
4. Karimov.G', Dolimov.S. Ogahiy — tarixchi / Ogahiy. Asarlar, VI jildlik, Vjild. —T.: 1978, 80-bet
5. Komilov.N Ogahiyning mahorati// Atoqli shoir, tarixnavis, tarjimon(Ogahiy haqida maqolalar) —T.: Abdulla Qodiriy nomidagixalq merosi nashriyoti, 1999, 80-bet.
6. Edward Allworth. Uzbek literary polities. London-Paris, 1964.

7. D.Y.Yusupova va R.P.Jalilova tuzgan “Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История” (Ташкент, Изд-во “ФАН” Академии наук Республики Узбекистан, 1998, стр.199) katologida qayd etilganidek “Zubdat ut-tavorix” haqida dastlab Miyon Buzruk Solihovning “O‘zbek tarixiga oid to‘rt muhim kitob” (Maorif va o‘qituvchi” jurnali, 1927 yil 9 – 10 sonlar) maqolasida ma‘lumot berilgan. Shuningdek, asar qo‘lyozmasi O‘zR FA ShI tomonidan nashr etilgan “Собрание восточных рукописей” katologida (VII,35. N_5023) tavsiflangan.

Bundan tashqari Z.Akzakovaning “Материалы по истории туркмен и

Туркмении” (t. II, с.477-449) tadqiqoti ham asardagi ma‘lumotlardan istifoda etilgan. Biz ham qo‘lyozmalar tavsifida ushbu asar manbalari ustida o‘zimizdan avval tadqiqot olib borgan mutaxassislar ishlaridan foydalanildi.